



**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
**ANJUMAN
MATERIALLARI**



KBK: 84.3(0)7.724
UDS: 821.557.632.2.4.5.41
K-54

“Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Buxoro: “Ilm ziyosi”, 2024. – 632 b.

Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 15-avgustdagi 509-U sonli buyrug‘i asosida Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Buxoro adabiy muhitining o‘tmishi va buguniga doir dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 ga yaqin maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Q.To‘xsanov – BuxDU professori
Sh.Davronova – BuxDU professori

Tahrir hay’ati:

H.Eshonqulov, D.Rajabov, G‘.Murodov, Sh. Axmedova, D.O‘rayeva,
D.Quvvatova, Sh.Hayitov, M.Rajabova, N.Bekova, Z.Amonova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

N.Qodirova, R.Rajabova, N.Norova

Taqrizchilar:

Laylo Sharipova– filologiya fanlari doktori, professor
Hayot Latipov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN 978-9910-745-39-3

© Buxoro davlat universiteti, 2024
© “Fan ziyosi”, 2024

hukm o'qib bo'lmaydi. Hamda tomosha asar muvaffaqiyati to'laliq – voqeaga aralashqon kimsalarning xarakterlari, ruhiy holatlari butunlay ochilg'anida, birlik – tub tilakning ochilishiga kerak bo'lmag'an kimsalar, ko'rinishlar, dio'lo'g, mo'no'lo'glar asarga kirguzilmasligida, to'g'rilik – asardag'i kimsalarning xarakterlari to'g'ri ko'rsatullishida deb belgilaydi. Mana shu asar qahramoni tomonidan ochilg'an kurashning shakliga ko'ra tomosha asarlari kulgu – komediya; fojia – tragediya; drama kabi uchga ajratadi.

Rivoya: Voqeada, yo xayolda bo'lgan voqealarni yozg'uvchi-adib tilidan tasvir etib yozilg'an asarlarga rivoya deyiladi. Masal, doston, hikoya, ro'mon (adabiyotning eng og'ir, eng qiyin sho'basi) otlari bilan to'rt asos qismga ajraladi. Voqealarni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asarlar guruhiga epik tur va epos(yunoncha epos – rivoya, hikoya) deb ataladi [3,81]. Bugungi kunda ham epik turning uch muhim xususiyati obyektivlik, voqeabandlik, ko'lamdorlik mavjud.

Abadiy tur va janrlar tushunchasi hozirgi adabiy jarayonda ham qizg'in bahs va munozaralarga boy. Qaysidir adabiyotshunos, lirik, epik, dramatik turning mavjudligini isbotlashga urunsa, qaysidir biri liro-epik turning ham borligi haqida fikr bildiradi. Demak, adabiyotshunoslik nazariyasida bu boradagi qarashlar haligacha o'rganilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
2. Белинский В. Полн. соб. соч. Т.8. – Москва, 1955.
3. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.

FITRAT SHE'RLARIDA TABIAT MANZARASI

Sohibova Zarnigor,

Buxoro davlat universiteti doktoranti, f.f.f.d(PhD)

Anotatsiya. *Ushbu maqolada jadid vakillaridan bo'lmish Abdurauf Fitrat she'rlari tahlilga tortilgan. Shoir nazmida qo'llanilgan peyzajning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy-estetik vazifasi va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Fitrat, peyzaj, lirika, badiiy-estetik vazifa, jadid adabiyoti.*

Аннотация. *В данной статье анализируются стихи Абдурауфа Фитрата, одного из представителей джадидов. Обсуждаются специфика, художественно-эстетическая функция и значение пейзажа, использованного в стихотворении поэта.*

Ключевые слова: *Фитрат, пейзаж, лирика, художественно-эстетическая задача, современная литература.*

Annotation: *This article analyzes the poems of Abdurauf Fitrat, one of the representatives of Jadid. The specific characteristics, artistic-aesthetic function and importance of the landscape used in the poem of the poet are discussed.*

Key words: *Fitrat, landscape, lyrics, artistic and aesthetic task, modern literature.*

XX asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko‘zga ko‘ringan va ta’sir doirasi kuchli vakillaridan biri Abdurauf Fitratdir. U yozuvchi, dramaturg, shoir, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g‘oyaviy yetakchilaridan biri sifatida elga tanildi. Yangi o‘zbek she’riyatida barmoq va sochma vaznidagi she’rlarning rivojida Fitratning alohida o‘rnini e’tirof etish lozim. U talabalik davridayoq zullisonayn shoir sifatida shuhrat qozondi. 1911-yil Istanbuldagi tahsil davomida “Sayha”, ayrim manbalarda “Na’ra”, “Chaqiriq” [2;16], nomi ostida she’riy to‘plamining nashr etilishi fikrimizga dalildir.

Fitrat she’rlarida tabiat tasviri, peyzaj elementlarini ko‘plab uchratish mumkin. Uning o‘zi “Shoir” she’rida bu haqda shunday yozadi:

Shoir

Tabiatdan sirli, teran ma’nolar,
Tiriklik chun ochiq, to‘g‘ri chin yo‘llar
Izlar – topar, o‘zi uchun saqlamas.

Unlarni

Yoz gulining yaprog‘idan to‘qilgan
“So‘z”lar ilan o‘rab bizga topshirar [4;40].

Chindan ham, tabiat, bizni o‘rab turgan cheksiz olam san’atkor uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai, o‘z fikr va maqsadlarini ifodalash vositasidir. Ayniqsa Fitrat singari murakkab ijtimoiy-siyosiy davrda yashagan ijodkor uchun borliq tasviriga vobasta o‘z kechinma va tuyg‘ularini tasvirlash, tabiat manzarasining poetik talqiniga uyg‘un yangi ijtimoiy-falsafiy fikrlarni aytish, xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham uning she’rlarida borliq manzarasi, bizni o‘rab turgan jonli va jonsiz olam, uning turfa ko‘rinishlarini ko‘plab uchratish mumkin. Fitrat she’riyatida bu kabi tasvirlar o‘ziga xos ramziy mazmun tashiydi. Ularda shoirning millatni ma’nan uyg‘otish, xalq taqdiri, istiqlol orzusi, istibdodga qarshi kurash kayfiyatlari aks etadi.

Fitrat she’rlari mutolaasi jarayonida bulut obraziga bir necha bor murojaat qilinganini ko‘ramiz. Bulut ifodasi “qop-qora, eski, titrak” singari sifatlashlar bilan birga “yel” – shamol hodisasiga uyg‘un qo‘llanilgan. Bu ikki obrazning o‘ziga xos ramziy ma’nosi bor. Fitrat ijodida bulut obrazi – yurt istiqbolidagi soya, mustamlakaning ramziy ifodasi. Shuning uchun uning rangi doim qora bo‘yoqlarda beriladi. Jumladan, ma’rifatchi adib Mirmuhsin Shermuhammedov xotirasiga bag‘ishlangan “Ovunchoq” she’ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

To’sib turgan oydinlikning yo‘lini

Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar,
Kuchli bir el ko‘rgach, turmas yirtilar
Umid kuni sening uchun ham tug‘ar.

Qayg‘urmagil sira, ey haq tuyg‘usi! [4;37]

Oydinlik – istiqlol orzusi, yurtning istiqboliga umid sifatida qop-qora bulut ifodasi bilan mazmunan zidlikni yuzaga keltirgan. She’rning nomida ham yorug‘ kunlardan orzumandlik seziladi. Vatan taqdiri “O‘gay ona tayog‘i-la surilgan,

yo‘qsul, o‘ksuz” yetim qizning qismatiga qiyoslanadi. Ammo shoir qalbidagi umid sabab yurt istiqboliga befarq bo‘lmaganlarning harakat va intilishlaridan tug‘ilgan erk va haqiqat nasimi (“kuchli bir yel”)ning mustamlaka bulutlarini quvishiga va adolat tantana qilishiga ishonadi:

...Biroq, ishon – shu hollarning barchasi

Erta, indin butun-butun yo‘qolar.

Oldimizni to‘sgan bulut parchasi

Kuchli bir yel ko‘rgach turmas, yirtilar.

Umid guli bizim uchun ham tug‘ar:

Qayg‘urmagil, sira, ey haq tuygusi!

Fitratning “O‘gut” she‘rida ham bulut obrazini uchratamiz. Unda shoir ko‘zlarida “millat saodati, baxti” aks etgan yurt farzandiga “yurt uchun qutulishning imkoni borligi”ni ta‘kidlaydi. “Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al” deya kurashga chorlaydi. “Yel yo‘li” ifodasi bilan esa istiqbol nasimi, istiqbol epkinlariga ishora qiladi:

Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni

Yondirib qo‘y, yirtib tashla barchasin yo‘q et.

Qilolmasang shu ishlarni,

Sening uchun xo‘rlikdir bu...

Yiqil, yo‘qol, ket! [4;41]

Shoirning bu she‘rda ham bulutga yondosh “eski” sifatlashini qo‘llashi tasodifiy emas, bizningcha. Bu tarixda vatanimizga qilingan ko‘plab hujumlar, bosqinlar va istibdodning ko‘hnaligiga ishora. Fitrat nazdida najot bor. Najot – kurashishda! Shoirning “Parcha” sarlavhali to‘rtligida ham qora bulut obrazini ko‘ramiz. Musiqaning inson fitratini uyg‘otguvchi sehrli kuchi lirik qahramon hislariga ham ta‘sir qiladi. Undan tug‘ilgan she‘rda keltirilgan umid va qora bulut ifodasida esa orzu va armon qarama-qarshiligini his qilish mumkin:

Ur, ur!.. Sening tirnoqlaring nozli, nozli urdiqcha,

Yuragimning bitib qolgan yaralari ochilsun!

Cholg‘i qili sening nozli tirnog‘ing-la titrarkan,

Umidimni qoplab turgan qora bulut yirtilsun! [4;41]

Ma‘lumki, asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir [6;221]. Bunda peyzaj detallari xronotopning bir qismi bo‘lib keladi. Shu o‘rinda peyzaj lirikasida kun va tun tasvirining alohida o‘rni borligini ta‘kidlash lozim. Bu jihatdan Fitratning “Mening kecham” she‘ri diqqatni tortadi. She‘rda sukunatli tunning musavvirova surati va yolg‘iz inson siymosi parallel tasvirlanadi. Shoir butun borliqning tun bag‘riga singib ketishini quyidagicha ifodalaydi:

Kech bo‘ldi, tinib bitdi tovushlar,

so‘ndi butun uylarda chirog‘lar,

tebranmadi yer uzra oyog‘lar,

zulmat yana har yon oqa qoldi.

Tolpinmadi, sayrashmadi qushlar,

jimjitektina inga kirdi,

boshini soldi keyinga,
so'lg'un qanoti ostig'a oldi.
Uchmoq, yashamoq qayg'ulariga
"chiq" deb o'zini uyqug'a soldi,
har dardi yo'qoldi.
Ko'klar sari chaqqon ko'tarilgan
tog' gavgdali uylar,
qo'nuqlar,
saroylar
ayrildi butun dabdabasindan,
bir qop-qora haykal tusin oldi [4;44].

Kunduz mahali tinmay yugurib yelgan, "chopgan, yiqilishg'an, yana turgan"
insonlar ham uyquga tolgan. Shunday "so'lg'un, qora, turg'un" tunda faqat ikki narsa
uyg'oq, "yolg'uz iki narsa yondosh":

biri sham'im,
biri...
ko'nglim!

Boshqa hama tinch, jim,

deydi shoir. Ma'lumki, she'riyatda peyzaj va peyzaj elementlari lirik qahramon
kayfiyatni ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi [3;229]. Peyzaj lirikasida
tasvirlangan tabiat manzarasida lirik subyekt qalbi suratlanadi, lirik subyekt qalbidan
o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma'noda, peyzaj
lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir [6;221]. Fitratning
ushbu she'ridan ko'zlagan badiiy niyati ham tun sukunatini ifodalash emas, balki
unga yondosh holda lirik qahramonning bedor va yolg'iz qalbini tasvirlashdir. Har
qanday soxtalik, aldash, mafaat, yov va hatto do'stlar diydoridan xoli inson va
ko'ngilning yonma-yon o'tirgan suratini chizishdir. Zulmat qo'ynidagi cheksizlik
shoirga o'z-o'zi bilan yuzlashish, tanishish, dardlashish va nihoyat o'zini anglashga
imkon beradi. Lirik qahramonning kecha sukunatini sevishi shundan.

Yuqorida tahlil qilganimiz Fitrat she'rlarini peyzaj lirikasi namunasi sifatida
baholamaslik kerak. She'rni peyzaj lirikasiga kiritish uchun unda to'lakonli
manzaraning chizilishi taqozo etiladi [6;222]. Uning she'rlarida peyzaj detallari
kechinmalarga turtki beruvchi, lirik holatni yaratuvchi kompozitsion unsur vazifasini
o'taydi. Fitrat lirikasidagi peyzaj elementlari his-tuyg'ularga ta'sir qiladi, ularning
yuzaga chiqish sabablarini ko'rsatadi, tematik jihatdan falsafiy va ijtimoiy-siyosiy
peyzaj detallarini o'zida aks ettiradi, shuningdek, ramziy mazmun tashiydi.
Boshqacha aytganda, bunda shoirning poetik olami, mavjud hayot haqiqatini
tasvirlash mahorati, tanlangan lirik manzaraning hayot mantig'iga, shuningdek,
shoirning g'oya va maqsadlariga, badiiy niyatiga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi.
Fitrat ijodidan keltirilgan tahlillar fikrimizni dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамов Б. Шеърият гавҳари: Лирикада образ муаммоси. – Тошкент:
Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 168 б.

2. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 144 b.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 368 b.
4. Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 256 б.
5. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 112 b.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Qayta nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – b. 406.

BUXOROLIK SHOIRALAR IJODI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Nasiba Norova,

BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti (PhD)

Annatsiya: *Ushbu maqolada Buxoroda yashab ijod qilgan va qilayotgan shoirlar ijodi haqida fikr yuritiladi. Mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz vakillarining ijodi tahlilga tortilib, ba’zi mulohazalar bildirilgan. Munira, Muslihabegim Miskin, Ibodat Rajabova, Nodira Afoqova, Laylo Sharipova, Mohigul Nazarovalarning ijodi obzor tarzida yoritilgan.*

Kalit so‘z: *She’riyat, Buxoro adabiy muhiti, badiiy tasvir vositalari, mahorat, an’ana, navatorlik.*

Annotation: *This article discusses the work of poets who lived and worked in Bukhara. The work of representatives of our classic and modern literature is analyzed. The works of Munira, Muslihabegim Miskin, Ibodat Rajabova, Nodira Afokova, Laylo Sharipova, Mohigul Nazarova are covered in the form of an exhibition.*

Key word: *Poetry, literary environment of Bukhara, artistic image tools, skill, tradition, creativity.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается творчество поэтов, живших и творивших в Бухаре. Анализируется творчество представителей нашей классической и современной литературы. В виде выставки освещаются произведения Муниры, Муслихабегим Мискин, Ибодат Раджабовой, Нодире Афоковой, Лайло Шариповой, Мохигул Назаровой.*

Ключевые слова: *Поэзия, литературная среда Бухары, средства художественного изображения, мастерство, традиция, творчество.*

She’r – ma’naviy olam boyligi. Chinakam shoirlik esa, xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo‘lish. Har kimga ham mana shu oliy maqom berilavermaydi. Xalqning dardi, orzu-istaklari, tarixi va buguni bilan hamnafas bo‘lish, yana qayta uni xalqqa ilinish mas’uliyatli, albatta. She’r qaysi davrda yaratilganligining ahamiyati yo‘q. Chunki, she’r – estetik hodisadir. Shunday ekan, inson uni o‘qib, o‘z qalb kechinmalarini his qilishi, rohatlanishi, yig‘lashi, huzurlanishi bir so‘z bilan aytganda estetik zavq olishi kerak.

<i>Nafosat O'roqova</i> FITRAT SHE'RIYATIDA FLORISTIK VA FAUNISTIK OBRAZLARGA MUNOSABAT.....	293
<i>Zulayho Abdurahmon</i> ZANJIRBAND SHER QOSHIDA.....	297
<i>Munisjon HAKIMOV</i> JAMOL KAMOLNING «SHAYXURRAIS» DOSTONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR.....	301
<i>Meltem Sancak, Nasiba Norova</i> ARISTOTEL HAMDA FITRATNING ADABIY TUR VA JANRLAR HAQIDAGI QARASHLARI.....	307
<i>Sohibova Zarnigor</i> FITRAT SHE'RLARIDA TABIAT MANZARASI.....	309
<i>Nasiba Norova</i> BUXOROLIK SHOIRALAR IJODI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR.....	313
<i>Choriyeva Mehriniso</i> ABDURAHMON TAMKIN IJODIDA MA'RIFIY G'OYA VA UNING BADIY IFODASI.....	318
<i>Nazarova Dildora</i> ZIKRILLA NE'MATNING BUXOROLIK SHOIRLAR G'AZALLARIGA MUXAMMASLARI BADIYATI.....	323
<i>Jamolova Zilola</i> ADABIY OBZORLARDA BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI TAHLILI.....	325
<i>Qodirova Ro`zigul</i> FITRATNING “ADABIYOT QOIDALARI”GA BIR NAZAR.....	330
<i>Sayliyeva Zarina</i> IBROHIM HAQQUL MAHORATI.....	334
<i>Soliyev Firuz</i> OMON MUXTOR VA STIVEN KING DETEKTIV ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	338
<i>Narziyeva Dilnoza</i> OMON MUXTORNING “MUHABBAT O'LIMDAN KUCHLI” ROMANIDA MEHMON OBRAZI TALQINI.....	343
<i>Jumanazarova Rayxon</i> SHE'RIYATDA INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI.....	346
<i>Maxmudova Robiyabonu</i> RUS VA O'ZBEK MAQOLLARIDA ONA OBRAZI.....	350
<i>Nosirova Dilfuza</i> JAN DE LAFONTEN MASALLARI OMON MUXTOR TARJIMASIDA.....	353
<i>Hikmatova Nigina</i> BUXOROLIK IJODKORLAR SHERIYATIDA “BOG” OGORONIMINING BADIY IFODASI.....	356
<i>Sayyora Latipova</i> JO`RA FOZIL QISSALARIDA TARIXIY VOQELIK VA BADIYLIKNING UYG'UNLIGI.....	359
<i>Qodirova Nasima</i> FITRAT TANQIDCHILIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	363
<i>G.SH.Kaxxorova</i> FITRAT ASARLARII TILIDA QO'LLANGAN YORDAMCHI SO'ZLARINING INGLIZCHA TARJIMADA BERILISHI.....	367
<i>Fozilova O'g'iloy</i> BUXOROLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVRO'Z TALQINI.....	370
<i>Farmonova Mohinur</i> ADABIY TA'SIR: TEVFIK FIKRET VA ABDURAUFI FITRAT.....	373
<i>Diyora Abdugalilova</i> ALISHER NAVOIY VA XOJA: ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK MASALALARI.....	379